

SH. U. BOBONAZAROV S. T. SA`DIYEV

Qalam tasvir fanidan

**TASVIRIY SAN`ATDAN BOSHLANG`ICH
TAVSIYALAR**



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

PEDGOGIKA FAKULTETI

“Tasviriy san`at va muhandislik grafikasi”

kafedra

Qalam tasvir fanidan

TASVIRIY SAN`ATDAN BOSHLANG`ICH TAVSIYALAR



Navoiy 2014 y

Anotatsiya

Hurmatli talaba qo'lingizdagi qo'llanmada rasm chizishning ayrim qonun-qoidalari, sirlari ko'rsatilgan. Har bir kishi rasm chizishga yoshligidan qiziqadi, rasmlar chizadi. Chizgan rasmi ko'ngildagidek chiqavermagach chizishni to'xtatadi. Shunday ekan bunday chizishga shoshilmang!

Eng asosiysi qiyinchiliklardan qo'rqmaslik kerak. Atrofimizni o'rab turgan olamni, sinchkovlik bilan kuzataylik. Shunda siz olamni naqadar go'zal ekanligini, undagi ranglar jilosini his qilasiz. Undagi har bir buyum, tabiat, undagi jonivorlar sizni o'ziga maftun qiladi. Qo'llanmada ko'rsatilgan rasm chizish tartibiga amal qilib, bilimingizni oshiring. Albatta siz bu ma'lumotlar bilan chegaralanib qolmasdan, uni yanada rivojlantirishni, mustaqil ishlab uni rivojlantirishingiz kerak bo'ladi.

Ustozlaringiz ko'rsatmalariga amal qilib, yanada ko'proq bilim egallashga harakat qilasiz. Ushbu qo'llanmadan yoki boshqa kitoblardan foydalanib, yanada yaxshiroq rasm chizishga harakat qilasiz degan umiddamiz.

Mazkur o'quv qo'llanma Navoiy davlat Pedagogika Instituti ____ 2014 yil

№ ____ sonly ilmiy kengashda muhokama qilindi va nashrga tavsiya etildi.

Tuzuvchilar:

Sh U.Bobonazarov . S.T.Sa'diyev

Navoiy Davlat Pedagogika Instituti "Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi" kafedrasi o'qituvchilari.

Taqrizchilar:

S.A. Shovdirov

Navoiy Davlat Pedagogika Instituti "Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi" kafedrasi katta o'qituvchi

H. D. Rasulov.

Navoiy Pedagogika va xizmat ko'rsatish kasb hunar kolleji o'qituvchisi.

KIRISH

Ushbu o`quv qo`llanma oliy o`quv yurti: Ta`limiy o`nalishi 5110800 bo`lgan tasviriyy san`at va muhandislik grafikasi talabalar uchun mo`ljallangan bo`lib, Qalam tasvir dasturi asosida yozilgan.

1997-yili O`zbekiston Respublikasida ta`lim tizimini rivojlantirish bo`yicha «Ta`lim to`g`risida»gi qonun va «Kadrlar tayyorlash Milliy» dasturi qabul qilindi. «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»da estetik turkumdagi fanlarni o`qitilishiga alohida e`tibor berilgan bo`lib, xususan, uning «Uzluksiz ta`limni tashkil etish va rivojlantirish tamoyillari» qismida, uzluksiz ta`limning faoliyat ko`rsatish tamoyillaridan biri bo`lib, ta`limning ijtimoiylashuvi deb qaraldi. U ta`lim oluvchilarda estetik boy dunyoqarashni hosil qilish, yuksak ma`naviyat, madaniyat va ijodiy fikrlashni shakllantirish lozimligini qayd etadi.

Mazkur o`quv qo`llanmada qalam tasvir fanining asosiy qonun-qoidailari haqida ma`lumotlar berilgan. Shu bilan birga perspektiva, ufq chizig`i, yorug`-soya qonuniyatlari ko`rgazmalar asosida tushuntirib o`tilgan. Mashg`ulotlarda talabalar uchun muhim bo`lgan masalalar yoritilgan. Buni tayyorlashda fanning namunaviy dasturi va metodik ko`rsatmalardan, shuningdek, uzoq yillik mehnat tajribamizga ham asoslandik.

Metodik qo`llanmada tasviriyy san`atning tur va janrlari haqida ham qisqacha ma`lumotlar ham berib o`tilgan. Bundan tashqari amaliy rasmlardan foydalanib talabalar o`zlari uchun kerakli ma`lumotlarni oladi deb o`ylaymiz.

Yoshlarni barkamol etib tarbiyalashda tasviriyy san`at, xususan, qalamtasvir fani alohida ahamiyat kasb etadi. Bu esa o`z navbatida, Oliy o`quv yurtlarida o`qitilayotgan maxsus fanlarning chuqur va asosli bo`lishini taqozo etadi, pedagog olim va rassomlar zimmasiga yuksak mas`uliyat yuklaydi.

Ushbu o`quv qo`llanma, Oliy o`quv yurti talabalari, Kollej o`qituvchi va o`quvchilari, hamda rasm chizishga qiziquvchilar uchun mo`ljallangan.

TASVIRIY SAN`ATDAN BOSHLANG`ICH TAVSIYALAR

Bu qo`llanmamiz uch qismdan iborat bo`lib ular:

- 1. Perspektiva qonuni.**
- 2. Tasviriy san`at tur va janrlari.**
- 3. Inson va hayvonlarning hatti-harakatlari.**

O`tmish tarixdan aniq ma`lumki, qadimda buyuk rassomlar tasvirlashning ilmiy asoslarini qo`llash natijasida katta yutuqlarga erishganlar. Florensiya maktabi rassomlari tasviriy san`atni ilm qatoriga qo`yganlar va natijada buyuk tasviriy san`at ustalari yetishib chiqqan. Buyumlarni o`ziga qarab tasvirlash - tasviriy faoliyatning alifbosidir.

Tasvirlashning asosiy qonun-qoidalar

Perspektiva qonuni. Tasvirlanayotgan buyum, ushbu buyum qaysi tomonidan tasvirlanishidan qat`iy nazar (uzoqdan, yaqindan, yuqoridan, pastdan, to`g`ridan yoki chekkadan), chizuvchiga o`zgarib ko`rinadi. Masalan, kubni u yoki bu tomonga burib, uning tomonlari perspektiv o`zgarib ko`rinishini kuzatamiz. 1-rasm ko`p qavatli binolar, simyog`ochlar va kenglikdagi boshqa shakllarning bizdan uzoqlashgan sari kichrayib, bir nuqtada tutashini ko`rishimiz mumkin. Hayotda o`zaro parallel bo`lgan relslar hech qachon to`qnashmasalarda, perspektiva qonuniga binoan, ular bizdan uzoqlashgan sari bu holatni kuzatishimiz mumkin. Bu perspektiva qonuniga asosan sodir bo`ladi. Ko`p yillik kuzatishlar shuni ko`rsatadiki, qalamtasvir mashg`ulotlarini o`tishda ayrim pedagoglar qalamtasvirning ilmiy asoslariga, perspektiva qonunlariga, plastik anatomiya va yorug`-soyalar nazariyasiga yetarli e`tibor bermaydilar. Oqibatda talabalar ushbu qonun-qoidalaridan bexabar qoladilar va amaliy vazifalar puxta bajarilmaydi.

Buyumlarni tekislikda haqqoniy tasvirlashda rassom perspektiva qonuniga bevosita murojaat qiladi. Bu holatni shunday ta`riflash mumkin: *“Tabiatdagi barcha buyumlar qanday shaklga ega bo`lmasin, perspektiva qonun va qoidalariga bo`ysunadi”*.



1-rasm

Ko`p hollarda rassomlar tasvirlanayotgan predmet kattaligining 3 hissa ko`paytirilganiga teng masofada turib rasm chizadilar. Masalan, inson qomatini to`laqonli tasvirlash uchun rassom naturadan taxminan 5-5,5 metr masofada turishi kerak, shundagina u tasvirni to`laqonli tasavvur etib, vazifani aniq bajarishi mumkin.

Balan binolar oldidagi daraxtlarni tasvirlash uchun chizuvchi undan qanday masofada turishi ko`rsatilgan, 2-rasmda tasvirda masshtablilikni ko`rishimiz mumkin.



2-rasm. Tasvirda masshtablik.


Ufq chizig`i deb, ko`z balandligidan o`tdigan nurga aytiladi. Qog`ozni gori-zontal holatda ko`zimiz darajasigacha ko`tarib, ufq chizig`ini aniqlashimiz mumkin.

1. Ufq chizig`idan yuqorida.
2. Ufq chizig`idan pastda.
3. Ko`zimiz nuri balandligida (ufq chizig`i balandligi darajasida).

Ufq chizig`i har doim ko`z nuri balandligidan o`tadi. Agar biz yuqoriga chiqsak u biz bilan ko`tariladi, pastga tushsak ufq chizig`i ham pastga tushadi. Ufq tekisligidan pastda joylashgan natyurmortning ko`rinishi tasvirlangan.


Buyumlarning hajmini chizishda, chiziqlarni tortish ketma-ketligiga rioya qilish kerak. Qalamni qog`oz sirtida bir xil kuch bilan bosganda chiziqlar orasidagi masofalarning teng bo`lishiga e`tibor berish - buyumni to`g`ri chizishda katta ahamiyatga ega.

Buyumlarning hajmini chizishda chiziqlarni tortish ketma-ketligiga rioya qilish kerak. 3- rasmda ko`rsatilgan gugurt qutisining qanday chizilishi ko`rsatilgan. Qalamni qog`oz sirtida bir xil kuch bilan bosganda chiziqlar orasidagi masofalarning teng bo`lishiga e`tibor berish - buyumni to`g`ri chizishda katta ahamiyatga ega. Dumaloq (sferik) hajmga ega bo`lgan buyumlarni chizishda chiziq tortish ellips shaklida bajariladi. 4- rasm. Sferik buyumning eng quyuq soya joylari uning ekvatoriga yaqinlashgan joyida bo`ladi.



3-rasm.

Oddiy hajmli buyumlarni rasmini chizishda perespektiva qoidalariga amal qiling.



4- rasm. Kub, Konus, Shar.

Tasviriy san`at tur va janrlari.

Tasviriy san`at taraqqiyoti, uning nazariy asoslarini shakllanishi jarayoni ibtidoiy jamoa davridan boshlab nihoyatda uzoq yo`lni bosib o`tdi. Ushbu soha taraqqiyoti ayrim davlatlar bilan chegaralanib qolmasdan, yer sharining barcha qit`alarida, barcha davrlarda izchil rivojlanib bordi. Bu borada san`atshunos va tarixchilar tomonidan nihoyatda ulkan va boy meros to`plangan.

Ma`lumki, san`atning turlari nihoyatda ko`p bo`lib, ularning eng asosiylari sifatida adabiyot, musiqa, kino, teatr, me`morchilik, amaliy bezak, sirk, televideniya, tasviriy san`at kabilarni alohida e`tirof etish mumkin.

"Tasviriy" atamasi "tasvirlash" so`zidan olingan bo`lib, unda turli material, xususan, bo`yoq, tosh, gips, shuningdek, boshqa badiiy va turdosh materiallar yordamida har xil timsollarning va narsalarning rasmi, haykalini ifodalash tushuniladi¹.

Tasviriy san`at ilm-fan kabi dunyoni, hayotni, tabiatni, xalqlar tarixini o`rgatishga xizmat qiladi. Tasviriy san`atning paydo bo`lishi ibtidoiy jamoa davriga borib taqaladi. Bu vaqtda kishilar tevarak-atrofdan sodir bo`layotgan voqealarni, odam va hayvonlarning tasvirini toshlarga chizib, ularni kesib turli ko`rinish va mazmundagi haykallarni yasaganlar. Qadimdan kishilar tabiat hodisalari va kishilarning o`zaro munosabatlari, faoliyatlariga, san`at ijobiy ta`sir ko`rsatadi, deb hisoblaganlar.

Ayni paytda tasviriy san`at asarlari kishilarning his tuyg`ulariga kuchli ta`sir ko`rsatish imkoniyatiga ham egadar. Kishilar tasviriy san`at asarlarini tomosha qilish orqali, ularda ifodalangan go`zallikni ko`rish orqali o`z hayotlarida ana shunday go`zallikni kiritishga harakat qiladilar, asarlardagi qahramonlarni ko`rib esa ularga o`xshashga intiladilar. San`at asarlarida ifodalangan salbiy voqealar, xunuk xatti-harakatlarni ko`rib, ulardan muayyan xulosalar chiqaradilar, bunday hodisalardan yiroq bo`lishga intiladilar.

Ayniqsa, tarixiy mavzudagi san`at asarlarini tomosha qilganda, o`sha davrdagi tabiat manzaralari, narsa va buyumlar, mehnat va jang qurollari, kishilar hayoti, urf-odatlari bilan tanishadilar, tasavvurga ega bo`ladilar (5-rasm).

¹ N.D Abdullayeva San`at tarixi T: "O`zbekiston" 2006. 104 b.

Rassomlar o'z asarlarida hayotni qanday ko'rsalar shunday emas, balki undagi alohida e'tiborga molik, harakterli ko'rinishlarni tanlab oladilar, eng muhimlarini esa bo'rttirib ko'rsatadilar va bo'rttirish orqali rassomlar narsa va hodisalariing kishilar tafakkuri va hissiyotlariga samarali ta'sir ko'rsatishga erishadilar.



5-rasm

Rassom borliqni shunchaki biladigan kishigina emas, balki u avvalo, boy tasavvur va tafakkur qilish qobiliyatiga ega bo'lgan ijodkordir. U o'z ijodida borliqni shunchaki aks ettiribgina qolmay, balki unga asoslangan holda nimalarnidir o'zi o'ylab topadi, tasavvur etadi va to'qiydi. Demak, san'at asarlari o'z mazmunida borliqni aks ettiribgina qolmasdan, ayni paytda ular rassomning g'oyalarni ifodalaydi, tomoshabin ongini boyitadi. Shu bilan birga bunday asarlar, kishilar ruhiyatiga ta'sir ko'rsatib, ular ma'naviy olamini bilim va tajribasini kengaytiradi.

O'zbekiston hududida tasviriy san'atning taraqqiyoti (Afrasiob, Varaxsha, Tuproq qal'a v.b. joylardan topilgan tasviriy san'at namunalari). Tasviriy san'atning turlari (rangtasvir, grafika, haykaltaroshlik) va janrlari (manzara, turmush, natyurmort, portret, tarixiy, batal, animal, afsonaviy, marinavistik).

Tasviriy san`atning uch turi mavjud:

1. Rangtasvir. 2. Haykaltaroshlik. 3. Grafika.

Rangtasvir deb - tekis yuzada rang va materiallar yordamida bajariladigan tasvirga aytiladi. Bu tur uchun asosan bo`yoqlar - moyli bo`yoq, akvarel, guash, tempera, shuningdek, rangli qalamlar, ko`mir, qalam, pastel, sous, sangana kabi badiiy materiallar bilan ishlash harakterlidir.

Rangtasvir asarlari yog`och, mato, karton, devor, oyna, yog`och kabi tekis yuzalarga ishlanadi. Rangtasvir asosini rasm tashkil etadi. Har qanday rangtasvir shaklida, avvalo, uning rasmi ishlab olinadi. Unda kompozitsiya, nur va soya, rang asosiy o`rin egallaydi.

Rangtasvir asarlari bajarilish texnikasi jihatdan turli-tuman bo`lib, ular moybo`yoq, temlerali, freskali, mozaikali, akvarel, guashli, nastelli bo`lishi mumkin.

Rangtasvir quyidagi turlari mavjud: I. Dastgohli rangtasvir. 2. Monumental (mahobatli) rangtasvir 3. Miniatyura (mo`jaz) rangtasviri. 4. Dekorativ (bezak) rangtasvir. 5. Teatr-dekorativ (bezak) rangtasviri. Bular - *freska, mozaika, vitraj*.



Dastgohli rangtasvir deyilganda, rassomlarning maxsus asbob-dastgoh (molbert) yordamida ishlaydigan Sur`atlari tushuniladi (6-rasm). Dastgohli Rangtasvir asarlari uncha katta bo`lmagan o`lchovda

6-rasm

yuqorida qayd qilib o`tilganidek mato,

karton, oyna, faner kabi tekis yuzali materiallarga bo`yoqlar bilan ishlanadi. Dastgohli rangtasvirda qo`shshimcha moyli va akvarel bo`yoqlar qo`llaniladi.

Monumental rangtasvir atamasi monumental (mahobatli), ya`ni katta o`lchovdagi rangtasvir ma`nosini anglatadi va bu turdagi asarlar qo`rg`oncha binolarning ichki-yu tashqi ko`rinishlari, tempera bo`yoqlari bilan ishlanadi.

Monumental rangtasvir asarlarining freska, mozaika, vitraj kabi turlari mavjud. Freskalar asosan bino devorlarining o'ziga, shunipdek, yupqa matolar yordamida ishlanadi.

Mozaika — turli tabiiy va ikkilamchi materiallar — rangli oyna bo'laklari, tonshar, materiallardan bino devorlariga yoki tekis materiallar ustiga ishlanadi

Vitraj esa binolarniig deraza, eshik, oynalari ustiga bo'yoqlar yordamida ishlanadi. Vitrajlar uy ichkarisi va tashqarisidan ham bir xil ko'rinadi.

Minatyura (mo'jaz) rangtasviri deyilganda: bejirim, juda kichik, jajji, nozik san'at asarlari tushuniladi. Miniatyura rang tasviri o'rta asrlarda kitob bezagi bilan bog'liq holda rivoj topdi. Rangtasvirning bu turi Sharq, shu qatori Movarounahrda katta shuhrat qozongan (7-rasm). Shuningdek, bu tur mustaqil san'at sifatida yildan-yil ommalashib bormoqda.



7-rasm

Dekorativ rangtasvir asarlari mustaqil amaliy ahamiyatga ega bo'lib, u binolarning ichki-yu tashqi devorlarini bezatishda keng qo'llaniladi. Ular panno shaklida, shuningdek, quticha, patnis, sandiq, shkaflarni bezatishda qo'l keladi. Bino ichini bezatishga xizmat qiladigan naqshlar, frizlar kabi mayda elementlar ham dekorativ rangtasvirga kiradi.

Teatr dekorativ rangtasviri: spektakl dekoratsiyalari, unda ishlatiladigan ayrim, sahna jihozlari bilan bog'liq. Ular teatr rassomi tomonidan tayyorlanib, spektakl mazmunini tomoshabinga keng va chuqurroq singdirishga yordam beradi. Bu bezaklarda rassomlar (8-rasm) sahnaning yoritilishi va ranglarga alohida e'tibor

qaratadilar. Spektakl bezaklarini unda ifodalash voqea sodir bo`layotgan joy, davr, muhit to`g`risida tomoshabin tasavvurlarini boyitadi, voqealarni idrok etishni osonlashtiradi va faollashtiradi².



Tasviriy san`at nazariyasi va amaliyotida akademik rangtasvir iborasi ham ishlatiladi. Akademik rangtasvir asosan o`quv jarayonida foydalaniladigan ko`rgazmali rangtasvir ishlari nazarda tutadi.

Haykaltaroshlik ham xuddi

8-rasm

rangtasvir kabi hayotiy voqea va hodisalarni turli uslub va tasvirlash texnikasi hamda materiallar yordamida ifodalaydi. Haykal taroshlikda tosh, metal, ganch, vosk (mum), sim kabi materiallar keng qo`llaniladi.

Haykaltaroshlik asarlari kesish, yopishtirish, ulash va o`yish, quyish orqali bajariladi. Haykaltaroshlik asosan ikki turi mavjud bo`lib, ularning birinchisi to`liq yumaloq haykallar, Ikkinchisi esa relefli - bo`rtma haykallardir. Yumaloq haykallarni har tomondan ko`rish mumkin bo`lsa, relefli haykallarni faqat bir tomondan, ya`ni oldindan ko`rish kerak bo`ladi. Relif haykallar tekislik ustiga ishlanib, yuzadan qisman bo`rtib chiqqan bo`ladi. Relifli haykallarning ham ikki xili bo`ladi:

1. Barelefda tasvir qalinligining yarmidan kami bo`rtib chiqqan bo`ladi.
2. Gorelefda esa bu qalinlikning yarmidan ko`prog`i bo`rtib turadi.

Haykaltaroshlikda ma`lum miqdorda rangdan ham foydalaniladi. So`nggi yillarda asalari mumi (vosk)dan haykal ishlash texnikasi qo`llanila boshlandi. Bunda rangli mumlardan kengroq VII asrdan buyon foydalanilmoqda. Haykallar shakl va mazmun jihatdan realistik, dekorativ va abstrakt yo`nalishlarda bo`ladi.

² N.D Abdullayeva San`at tarixi T: "O`zbekiston" 2006. 118 b.

Realistik haykallarda odam, hayvon va boshqa tasvir obektlari haqiqiy ko'rinishda ifodalansa, dekorativ haykallarda ular stillashgan (9-rasm), ya'ni shakl, o'lchov, perspektiva va boshqa jihatlardan ma'lum darajada o'zgartirilib ifodalanadi. Abstrakt haykallardagi ob'ektlar shakl, mazmun, o'lchov va boshqa



9-rasm

jihatlardan mavhumlashtirilgan holda tasvirlanadi.

Haykaltaroshlar o'z faoliyat ila ish quroli sifatida quyidagi asboblardan foydalanadilar: maxsus dastgoh, bolg'a, bolta, sirkul, iskana va boshqalar. Iskanalarning to'g'ri burchakli, uchburchakli, trapetsiya burchakli, chuqur shakl beruvchi

yoysimon turlari bo'ladi. Shuningdek, haykal loyi ustidagi ortiqcha qismini tortib olish uchun qattiq metallardan tayyorlangan doira, ellips, uchburchak, to'g'riburchak, trapetsiya shaklidagi sidirg'ichlar qo'llaniladi. Shuni ham qayd qilish lozimki, haykaltaroshlikda qo'llaniladigan uskanalar turli o'lchovda, to'zishda va shaklda bo'ladi.

Haykaltaroshlik dastgohli, monumental, yodgorlik (memorial) dekorativ va monumental-dekorativ turlari mavjud³.

Dastgohli haykaltaroshlik iborasi haykallarni maxsus asbob (dastgoh)ga o'rnatib qo'langanidan kelib chiqqan (10-rasm). Bunday haykallar mustaqil amaliy ahamiyat kasb etib, ular jamoat binolari va uy joylarning ichki qismi, shuningdek, istirohat bog'lari, muzey va ko'rgazma zallariga mo'ljallab yaratiladi.


Dastgohli haykallarning o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri. ularda gasvirlanayotgai ob'ektlarning haqiqiy, ya'ni hayotdagi o'lchamda yoki undan kichik bo'lishidadir.

Dastgohli haykallarning asarlari yaqindan ko'rishga mo'ljallangan bo'lib, unda portret asosiy o'rinni egallaydi. Haykaltaroshlikda timsollik (harakat bosh

³ N. Abdullaev. San'at tarixi. 1 – tom. –T.: “O'qituvchi”. 1986. 98 b

qismi elkasi tasvirlanadi, bunday asar byust deysyadi. Ularda odam bo`yi-basti bilan tasvirlansa, bu fiturali portret deb yuritiladi. Shuningdek, yarim furali portretlar ham bo`ladi.

Mahobatli haykaltaroshlik iborasi monumental, yirik. mahobatli haykal



10-rasm

ma`nosini anglatadi. Ular maydon va ko`chalarga xalqommasi uchun mo`ljallab o`rnatiladi. Bunday haykallar tarixiy voqealar yoki alohida mashhur shaxslarniig nomlarini abadiylashtirish maqsadida o`rnatiladi. Monumental haykallar uzoqdan ko`rishga mo`ljallangan bo`lib umumlashtirilgan tarzda atrof-muhit bilan bog`liq holda yaratiladi. Monumental haykaltaroshlikning alohida yo`nalishparidan biri - bu monumental-dekorativ hay-

kaltaroshlikdir. Bu yo`nalishdagi asarlar ham

monumental haykaltaroshlik asarlari kabi keng xalq ommasi uchun mo`ljallangan bo`lsada, ko`proq bezak vazifasini bajaradi. Mahobatli – dekorativ haykallar ko`cha va maydonlarni, bino va istirohat bog`larini, fontanlarni bezatishda ishlatiladi.



11-rasm

Ularda odam, hayvon, baliq va qushlar tasviri ifodalanadi. Bunday haykallar yirik o`lchamda bo`lganliti sababli, ularni bemalol uzoqdan ko`rish mumkin. Mahobatli asarlarning umumiy o`lchami, hajmi, proporsiyalari tevarak-atrof, tabiat va binolarga moslab ishlanadi.

Mahobatli-dekorativ haykallar garchi mahobatli bo`lsa-da, ular ham to`liq hajmli va relefli qilib ishlanishi mumkin.

Plastik haykaltaroshlik — haykaltaroshlikning bir turi sifatida monumental haykallarda, yodgorlik haykallarda, shuningdek, binolarning ichki va tashqi bezak ishlarida keng qoʻllaniladi. Ular oʻlcham jihatdan kichik boʻlib, mustaqil amaliy ahamiyat kasb etadi. Maxsus loydan ishlanadigan kichik oʻlchamdagi oʻyinchoq haykallar ham plastik dekorativ haykallar hisoblanadi. Ularni baʼzan mayda plastika deb ham atashadi. Oʻzbekistonda haykaltaroshlikning bu turida usta kulollardan X.Rahimova, U.Joʻraqulov, A.Muxtorov kabi xalq kulol ustalari samarali mehnat qilganlar.

Dekorativ haykaltaroshlikning yana bir turi borki, ular kichik oʻlchamdagi metall, marmar, yogʻoch, suyak, chinni kabi materiallardan ishlanadi. Ular ham dekorativ, ham rangtasvir tarzda ishlatilishi mumkin. Bunday haykallar kitob javonlari, yozuv stollarini bezashadi.

Grafika. "Grafika" — lotincha soʻz boʻlib, "yozaman, chizaman" degan maʼnoni bildiradi va tasviriy sanʼatning turlaridan biri 11-rasm hisoblanadi. Grafikaning turlaridan biri gravyuradir.

"Gravyura" fransuzcha soʻz boʻlib, "kesish" maʼnosini bildiradi (11-rasm). Bunda rasmlar qattiq materiallarga chizish va kesish orqali bajariladi. Bu rasmlar avvalo metall, linoleum, yut kabi materiallarda ishlanib, keyin undan qogʻozga koʻp tirajda koʻchiriladi. Metallda tayyorlanadigan gravyurani ofort, yogʻochdagisini ksilografiya, lenoliumdagisini linogravyura, tosh orqali taʼsirlanadiganini esa litografiya deb yuritiladi.

Grafika asarlarning qoʻllash sohalari nihoyatda kengdir. Xususan, estam, kitob illyustratsiyalari, plakat, pochta markalari, gazeta-jurnal bezaklari, karikaturalar, (hajviy rasmlar) etiketka va oʻrama (upakovka)lar, teatr va kino afishalari, yoʻl va tovar belgilari, tashkilot va muassasalarning blankalari shular jumlasidandir⁴.


⁴ N. Abdullaev. Sanʼat tarixi. 1 – tom. –T.: “Oʻqituvchi”. 1986.114 b

Kitob grafikasining ilk vatani Sharq hisoblanib, XV—XVII asrlarda bu sohada sharq musavvirlaridan Kamoliddin Behzod, Mahmud Muzahhib, Muhammad Murod Samarqandiy, Sultgon Muhammad, Qosim Achi, kabilar shuxrat qozongan bo'lsalar, XX asrda O'zbekistovda I.Ikromov, V.Kedrin,

O.Osheyko, Q.Basharov, T.Muhamedov, I.Kriakidilar sermahsul ijod qildilar.

Grafikaning o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri bu — uning katta o'lchamda bo'lmasligi va bo'yoqlar sonining chegaralanganligi hisoblanadi. Shuning uchun ham grafika asarlarida faqat chiziq yoki to'q rangli tasvir ishtirok etadi. Ba'zan grafik tasvirlar har xil rangli bo'ladi (12-rasm).

Ayrim grafika asarlari katta o'lchamda, va ko'p nusxada tayyorlanadi



12-rasm

hamda katta tarbiyaviy vazifalarni bajaradi

Grafika san'atida estami ham katta o'rin egallaydi. Estami yaratish uchun avvalo tasvir maxsus asboblar bilan qattiq materiallar (tosh, yog'och, linoleum) o'yin orqali tushiriladi. So'ngra o'yilgan material ustiga bo'yoq beriladi va undan qog'ozga tasvir olinadi. Estamp uchun shu narsa xarakterliki, unda gravyura bosmadan chiqqanidan so'ng rassom unga ba'zi bir tuzatishlar kiritadi va asar tagiga o'z imzosini qo'yadi. Grafika texnikasining keng tarqalgan turlaridan yana biri bu -illyustratsiyalardir. Qadim-qadimdan tasviriy san'at bezagi bilan chambarchas bog'langan holda rivoj topgan. O'rta asrlarda Sharq va G'arb mamlakatlarida yaratilgan kitoblarning deyarli ko'pchiligi naqshlar va rangli rasmlar bilan bezatilgal. Bu rasmlarda kitob mazmuni o'z aksini topar edi. Keyinchalik, kitob bosish dasgohlari ixtiro qilinganidan so'ng, illyustratsiyalar kitoblarda yanada katta o'rin egallay boshladi. Illyustratsiyaning ahamiyati shundaki, birinchidan u kitobni bezakli, chiroyli va yoqimli bo'lishiga yordam

beradi, Ikkinchidan adabiy obrazlar-timsollarni aniq va jonli bo'lishiga, o'quvchining yodida yaxshi saqlanib qolishiga xizmat qiladi (12-rasm).

Rassom biror bir dabiyl asarga illyustratsiya ishlashga kirishishdan avval, mazkur asarni yaxshilab o'rganib chiqishi bilan bir qatorda, asardagi voqea sodir bo'layotgan davrga doir materiallarni ham to'plashi, o'sha davr odamlarining madaniyati va turmushini, mamlakat tabiatini bilib olishi kerak bo'ladi.

O'zbek xalq ertagining bir turi hisoblanadi. "Karnay ko'targan bola" asosida unda hayotdagi ayrim salbiy ishlangan illyustratsiya hodisa va ko'rinishlar, shaxslar hajviy yoki hazil tarzda rasmlar orqali tanqidiy tasvirlanadi

Grafikaning reklama, afisha, etiketika, o'rama (upakovka) kabi turlari ham keng tarqalgandir. Gazeta, jurnal grafikasi ham shriftlar bilan bog'liq bo'lib, amaliyotda keng qo'llaniladi.


O'tgan asring 60 yillarida o'zbek grafik rassomlari milliy tasviriy san'atning badiiy an'analarini davom ettirib, yuksak badiiy saviyadagi asarlarni yaratgandilar. Shunday rassomlardan biri I.Ikromovdir. Iskandar Ikromov tomonidan A.Navoiyning "Lirika" nomli to'rt jildlik she'rlar to'plamiga ishlangan rasmlar rassom ijodining gultoji hisoblanadi⁵.

Bu ish 1960 yilda Toshkentda Markaziy Osiyo rassomlarining hududiy kotkrerspsiyasi munosabati bilan ochilgan ko'rgazmada e'tirof etilib, yuksak taqdirlangan. Kitobning muqova jildi nihoyatda original va betakror bo'lib chiqqan. Undagi to'vus tasviri asarga mos lirik xususiyat kasb etadi. Muqova yuzasidaga grafik belgilarining bir tekisligi, to'vus tasvirinipg nafis ranglar bilan ifodalanishi, qushning orqa tomonidagi havorang buvqtar bilan berilgan gul shalida shuningdek, qizil rangda yozilgan kitob nomi uning yuqori badiiy saviyasini ta'minlagan.

Tasviriy san'atda: manzara, maishiy, natyurmort, portret, tarixiy, animal, (ya'ni hayvonot olamiga oid) afsonaviy, dengazmavislik, nyu, inter'er janrlari mavjud. Masalan, asarlarda odam rasmi ishlansa "Portret", tabiat ko'rinishlari tasvirlansa "Manzara", turmush va mehnat jarayonlari tasvirlansa "Maishiy" janrga xos bo'ladi. Shuningdek, tarixiy voqealarni tasvirlasa tarixiy janr, harizonlarni

⁵. Oydinov N. Ajdodlarimiz san'ati va etiqodi. T. 1992.54 b

tasvirlash animal janr deb yuritiladi. "Animal" janri lotincha "anima" soʻzidan kelib chiqqan boʻlib hayvon maʼnosini anglatadi. "Vatan" janri esa fransuzcha "batay" soʻzidan kelib chiqqan boʻlib, jang, "nyu" janri fransuzcha yalangʻoch



maʼnosidagi soʻzdan kelib chiqqandir. Ayrim asarlar bir paytning oʻzida ikki va undan ortiq janrga mansub boʻlishi mumkin. Masalan, norast va nyu, deshtiznavislik, interkr, manzara va hokazolar.

Har bir janr oʻz oʻrnida yana bir qancha janrlarga boʻli-nishi mumkin. Masalan, manzara janrini -

13-rasm

tabiat manzarasi janri, shahar manzarasi

janri, industrial-sanoat binolari koʻrinshtsh manzarasi janriga yoki, portret janrini tantanavorlik, ishqiy, guruhli janrlarga boʻlish mumkin.

Vaqt oʻtishi bilan janrlar tabaqalashib, mustaqil tus olishi ham mumkin. Masalan, manzara janridan dengiz- navislik, tarixiy janrdan batal, manzara janridan interer ajralib chiqqan. (13-rasm)

Manzara janri. Tasviriy saʼnatda tabiat, shahar, industrial-sanoat, interer koʻrinishlarining tasvirlanishi manzara janriga taʼluqlidir.

Manzara janridagi asarlarning ayrimlari bevosita tabiatning haqiqiy, yaʼni hayotiy koʻrinishini tasvirlasa, boshqalarida borliq ijodiy tarzda, hayolan ifodalangai boʻladi. Baʼzan bu ikki hol bir asarda kuzatilishi ham mumkin.

Manzara janrining paydo boʻlishi juda uzoqlarga borib taqaladi. Manzara tasvirlarinish keng tarqalishini qadimgi Sharq va Krit orollaridagi qadimgi arxeologik qazilmalar misoliida koʻrish mumkin.

Masalan, eramizdan avvalgi davrlarga oid Beni-Hasandagi qabr toshida yovvoyi mushuk ovi tasvirlangan. Manzara janri mo`staqil ravishda Xitoyda VI



14-rasm

asrda paydo bo`lgan bo`lsa, Evropa tarafda Uyg`onish davrida ilmiy negizda, ya`ni chizish va havo (rang) perespektivasi asosida shakllangan.

Manzara janrining ikki xili mavjud. birinchisi mustaqil manzara bo`lib, unda faqat manzara aks ettiriladi. Ikkinchi turida manzara biron tasvir fonida tasvirlanadi. Masalan, portretning (14-rasm) orqa tomonida tabiat yoki shahar manzarasi ta`sirlanshi mumkin. Manzara janrida samarali ijod qilgan va san`at ixlosmandlariga manzur bo`lgan

rassomlardan I.Levitan I.Shishkin, O`.Tansiq-

boev, I.K.Ayvazovskiy, N. Klrahaya kabilarni alohida tilga olish mumkin. Manzara janrining alohida shakllaridan biri bu interer hisoblanadi. Interer binolarning ichki qismi ko`rinishlarini ifodalaydi.

Bu janr qadimga Misr, Xitoy rassomchilikda ko`p uchraydi. Qadimga misrliklar va xitoyliklar o`z g`oyalarida intererni aql bovar qilmaydigan darajada aniqlik bilan perspektiva qonunlari asosida tasvirlay olganlar. Bu janrda ijod qilib Joggo, A.Verrokko, Leonardo da Vinchi, Rembrandtlar shuhrat qozonganlar<sup>6</sup> Manzara janrining Ikkinchi bir ko`rinishi bu dengiznavislik janridir. Unda asosan (14-rasm) dengiz ko`rinishlari va undaga hodiasalar tasvirlanadi. Marenistik janrining shakllanishida buyuk rassom I.Ayvazovskining xizmatlari katta bo`lgan. Bu ulug` rassom o`zining umrini faqat dengaz ko`rinishlarini tasvirlashga bag`ishladi. Uning "To`qqzinchil val", "Chesmen jangi", "Qora dengiz", "To`lqinlar orasida" kabi asarlari jahon tasviriy san`atida munosib o`rinni egallaydi.

⁶ N. Oyidinov O`zbekiston tasviriy san`ati tarixidan lavhalar.T: "O`qituvchi" 1997. 91 b.



15-rasm

Dengiznavislik janridagi asarlarda boshqa janrlarga xos elementlar ham ifodalanishi mumkin. Masalan, portret, manzara, tarixiy, maishiy va hokazolar. Manzara janri ko'proq rangtasvirda, qisman grafika va haykaltaroshlikda qo'llaniladi. Haykaltaroshlikda manzara asosan

uning Relief turida ishlatiladi. Haykaltaroshlikda manzara ko'rinishlari asosiy emas, balki to'ldiruvchi, qo'shimcha ahamiyat kasb etadi. Natyurmort janri. "Natyurmort" so'zi fransuzcha bo'lib "jonsiz narsalar (natura)" ma'nosini anglatadi. Bu janrdan asosan (16-rasm) rangtasvir va grafika asarlarida keng qo'llaniladi. Tasviriy san'atning bu janrida gullar, mevalar va sabzavotlar, quyonlar, baliqlar, oziq-ovqatlar, turli predmetlar aks ettiriladi.

Natyurmort mustaqil janr sifatida XV-XVI asrlarda Gollandiya va Ispaniyada paydo bo'lgan.

Natyurmortning ikki turi mavjud. Birinchisi mustaqil ravishdagi natyurmort bo'lsa, Ikkinchisi yordamchi yoki to'ldiruvchi natyurmortdir. Natyurmort birinchi turda faqat natyurmort tasvirlansa, Ikkinchi turdagi natyurmort bironta portret yoki maishiy janrdagi tasvirda qo'shimcha detal sifatida ishlangan bo'ladi. Natyurmortning harakterli xususiyatiuning hayotdan, go'zallikdan zavqlanishga yo'naltirilganidadir. Bu vazifa meva-sabzavotlar, oziq-ovqatlarni turli ko'ringan va ranglarda ifodalab, kishilarning his-hayajonini uyg'otish orqali bajaradi.




16-rasm

Natyurmortning turli millat elatlarning turmush tarzi haqida lumotlar berishi ham o`ta himdir. Mutaxassislar natyurmortning kishilarga ikki xil turini yd qilishadi. Birinchisida, natyurmort kishilarni go`zatlikka oshno o ularni hayotdan zavqlanishga orlaydi. Agarda u meva-sabzavot oziq-ovqatlar tasviridan tashkil

topgan bo`lsa, tomoshabinga yaxshi

kayfiyat va ishtaha baxsh etadi. Ikkinchisida natyurmort o`zi haqida emas, balki u bilan bog`liq shaxs uning egasi haqida ma`lumot beradi. Bunday natyurmortlarda kishilar aks etmasa-da, biroq uning didi, ijtimoiy mavqei ifodalanadi. Natyurmortlarning bu ikki xili yaxlit holda ifodalanishi ham mumkin. Bu janrlarda ijod qilgan rassomlardan J. Sharden, F. Snayders, I. Mashkov, P. Konchalovskiy, L. Salimjonovalar katta shuhrat qozonganlar.

Maishiy janr. Bu janrdagi asarlar kishilarning maishiy turmush tarzi, (17-rasm). mehnati, kundalik hayoti bilan bog`liq bo`lib, ularda ko`proq oila, maktab, dam olish, shaxsiy va ijtimoiy hayot jarayonlari aks ettiriladi. Maishiy janrdagi asarlar nafaqat hozirgi kun odamlarining balki o`tmishdagi kishilarning turmush tarzi va hayoti haqida ham keng ma`lumot beradi Tasviriy san`atda maishiy janr XVII asrda Gollandiyada paydo bo`lgan. Bu janr o`z mazmuni jihatdan ancha murakkab bo`lib, natyurmort, manzara, animal va boshqa janrlar bilan bog`liq tarzda yaratiladi. Maishiy janr ko`proq rangtasvirda, ba`zan esa grafika va haykataroshlikda ham ishlatiladi.



17-rasam

Maishiy janrda ijod qilgan rassomlar tarixda nihoyatda ko'p bo'lib, ulardan eng mashhurlari sifatida turli zamon va makonlarda yashab ijod etgan Kamoliddin Behzod, Leonardo da Vinchi, Ilya Repin, Z.Inog'omov, J.Umarbekov, A.Sikeyros, R.Kentva boshqalarni tilga olib o'tish mumkin.

Portret janri. "Portret" fransuzcha "portrait" so'zidan olingan bo'lib, kishilarning chehrasidagi xuddi o'ziga o'xshatib (18-rasm) tasvirlash ma'nosini bildiradi.



18-rasm

Portretda kishilar yakka, ikki kishi yoki bir guruh sifatida tasvirlashi mumkin. Portretda odamlarning faqat bosh, ba'dan yoki beligacha yoki bo'yi-basti bilan tasvirlanishi mumkin. Portret tasviriy janrning uchala turida ham qo'llaniladi. Portret harakteri jihatdan monumental, dramatik, lirik, tushgohli, ishqiy, hajviy bo'ladi⁷.

Rassomlarning ijodida uning avtoportret xili ham keng tarqalgan.

Avtoportretni rassom oynadagi o'z aksiga qarab yaratadi. Manzara janrida samarali ijod qilgan va san'at ixlosmandlariga

⁷ N. Oydinov O'zbekiston tasviriy san'ati tarixidan lavhalar.T: "O'qituvchi" 1997. 98 b.

manzur bo'lgan rassomlardan I.Levitan, I.Shishkin, O'.Tansiqboev, I.K.Ayvazovskiy, N.Klrahaya kabilarni alohida tilga olish mumkin. Manzara janrining alohida shakllaridan biri bu interer hisoblanadi.

Interer binolarning ichki qismi ko'rinishlarini ifodalaydi. Bu janr qadimga Misr, Xitoy rassomchilikda ko'p uchraydi. Qadimgi misrliklar va xitoyliklar o'z g'oyalarida interer ni aql bovar qilmaydigan darajada aniqlik bilan perspektiva qonunlari asosida tasvirlay olganlar.

Bu janrda ijod qilib Joggo, A.Verrokko, Leonardo da Vinchi, Rembrandtlar shuhrat qozonganlar. Yuqorida bajarilgan mashqlar, asosan, boshni rang tasviriga qaratilgan edi. Portret kompozitsiyasi, badiiy obraz, umuman ijodiy vazifalar to'g'risida so'z yuritmadik. Kompozitsiya darslarida bu mavzu muhim o'rin tutadi. Rangtasvir xususiyati ustida gap ketganda bu mavzuga qo'shimcha ijodiy portretning ba'zi bir talablari haqida fikr yuritsak.



19-rasm

Portretning to'g'ri topilgan yechimi uning astik karakteristikasi, ruhiy holati, psixologiya-ni, shuningdek uning millatini ham aniq ochib eradi. Tomoshabinning asosiy diqqati portretning bosh, yuz qismiga ko'proq qaratilgan bo'ladi. Portretda eng muhimi uning ko'rinishi va yuz odasidir. Aynan shu ifodada insonning (19-rasm) ichki ruhiy dunyosi aks etadi. Inson harakterini umuman butun borlig'ini yorqin namoyon etadigan ifodani topish juda muhimdir.


Boshqa detallar esa uni to'ldiradi va kuchaytiradi. Inson tasvirida ko'z, burun, lablar uning harakterini ifodalaydi. Portiretda qo'llar ham muhim ahamiyatga ega. Qo'llarga qarab odamning kasbi, harakteri hatto bajaradigan ishini ham aniqlash mumkin (20- rasm).




20- rasm

Bosh harakteri uning burilib, egilib turishi yuz mimikasi gavdaning umumiy holati insonning harakterini ochishga yordam beradi. Insonning ichki ruhiy holatini ifodalash rassom ning muhim, asosiy vazifasidir. Harakterli ishoralar ham rassom nazaridan qolmasligi zarur. Ular yuz ifodasi - Leonardo da Vinchi. Jakonda, (Mona Liza portreti)ga mos bo lishi kerak. Inson dunyoqarashi uning ruhiyati, har bir harakati, o`zini tutishi, voqealarga bo`lgan munosabati, fikrlashi ham obrazni to`laqonli yoritishga yordam beradi. Harakat insonning eng zo`r o`ziga xos harakteridir. Bu narsani faqat mavzuli asar ishlaganda emas, portret ustida ish yuritish jarayonida ham unutish kerak emas

Qalam tasvirda ishlatiladigan ish qurollari.





Rasmni chizishni boshlashdan oldin natyurmortni yaxshilab kuzating.
Chizilayotgan rasmlar ufq chizig`ining qayerida turibdi (pastida, yuqorisida)


Narsaning o`ziga qarab rasm chizishda buyumning umumiy ko`rinishiga, mutanosibligiga e`tibor bering. Yordamchi chiziqlardan foydalaning.



A)

B)

C)



a) Noto`g`ri shtrixlangan


b) Noto`g`ri shtrixlangan

c) To`g`ri shtrixlangan




Natyurmort chizishgda buyumlarni to`g`ri tanlang .


(Buyumlar bir-biriga bog`liq bo`lishi lozim)




Kapalak rasmini shunday chiziladi.




Qo`ng`iz rasmi shunday chiziladi.




Baliq rasmi shunday chiziladi.



Ninachi rasmi shunday chiziladi.




Qushlarni tuzilishi bir-biriga o`xshab ketsa ham,
ularni boshi, qanoti, oyoq panjalari turlicha bo`ladi.




Har bir qushning qanday xarakterli tomonlari bor ?

Qushlarni chizishda, nimalarga e`tabor berishimiz kerak?




Qush va parrandalarni umumiy ko`rinishini chizing.

Tez o`rganib olish uchun rasmda ko`rsatilganidek chizib mashq qiling.




Hayvonlarni bir necha holatda xomaki rasmlarini chizing.

So`ngra tugallangan ishlarni bajaring.





Qushlarni kuzating, ular qanday harakatlanadi, qanday ovqatlanadi, qanday yuradi.

Bir nechta qushlarning xomaki rasmini tez chizib ko`ring.




Hayvonlarning skleti va umumiy ko`rinishi bir-biriga o`xshab ketadi.

Lekin ularni bir-biriga mutlaqo o`xshamaydigan jihatlari borligiga e`tibor bering.




Daraxtning rasmini turli usullar bilan chizishga harakat qiling.



Chizilgan rasmlarni yaxshilab kuzating.

Qo`lni har xil holatini chizishni mashq qiling.



Jismoniy tarbiya darslarida o`rtoqlaringizni harakatlariga e`tibor bering.




Odam gavdasini rasmini chizishda ularni turish holatiga, tayanch nuqtasiga,
boshining holatiga e`tibor bering.



Odamlar harakatini kuzating va xomaki rasmlar chizing.




Harakatdagi odamlarni kuzating va xomaki rasmlar chizing.



I


inson bosh suyagi shunday ko`rinishda bo`ladi.

Odam partretini ishlashda undan foydalanig.




Partret chizishda insoning his-tuyg`ularini tasvirlash muhimdir.

Partret chizishda “Kayfiyat sxemasi”dan foydalaning.




Insonning yuz qismini chizishda quyidagilarga e'tabor bering: ko'z boshning o'rtasida joylashgan, ko'zlar o'rtasidagi masofa, ko'z uzunligicha bo'ladi, qosh, burun, quloq bir chiziqda joylashgan bo'ladi. Burinning eni ko'zlar orasidagi masofaga teng boladi.



Rasmdagi holatlarga qarab do'stingizning rasmini cizing.



Bolalar harakatini kuzating. “Qishki o‘yinlar”, “Navro‘z bayrami”, “Yozgi oromgohda” kabi mavzularda rasmlar chizib ko‘ring.



Do‘stlaringiz harakatini kuzating va ular asosida bir nechta xomaki rasmlar chizing.


Bilasizmi ?

1. Tasviriy san`at sohasida ijodiy qobiliyat erta uyg`ongan mashhur rassomlardan: **Rafaelda 8 yoshida, Mikellanjeloda 13 yoshida, Repinda 4 yoshda, Surikovda 6 yoshida** shakllangan.
2. **leonardo da Vinchining** mashhur asari “**Mona Liza**”, Parijdagi **Luvr** muzeyida saqlanmoqda.
3. Sharq minatyura san`atining asoschisi **Kamoliddin Behzod** hisoblanadi.
4. Hayvonlar, qushlar tasvirlari ishlangan asarlar **animalistik** janrdagi asarlar deb aytiladi.
5. Sopol parchasi, shisha sinig`i, rangli toshlardan ishlangan rasmlar **Mozaika** deb aytiladi.
6. **Amir Temur** portretini **Malik Nabiye**v yaratgan.
7. Toshkentdagi Amir Temur xiyoboniga o`rnatilgan “**Amir Temur**” haykalini **Ilhom va Kamol Jabborovlar** yaratganlar.
8. **Natyurmort** fransuzcha “**Jonsiz buyum**” ma`nosini bildiradi.
9. **Kamoliddin Behzod** Hirotdagi “**Nigoriston**” nafis san`at akademiyasida tahsil olgan.
10. “**Inter`er**” – fransuzcha so`z bo`lib, xonaning ichki ko`rinishi ma`nosini anglatadi.
11. **Simmetriya** –grekcha so`z bo`lib, o`lchovlarning (tomonlarning) bir-biriga moskelishini ma`nosini bildiradi.
12. **Kompozitsiya** – lotincha so`z bo`lib, joylashtirish degan ma`noni anglatadi. Rassom yaratgan asar ham kompozitsiyaga misol bo`ladi.
13. **Kolorit** – fransuzcha so`z bo`lib, rang-bo`yoq ma`nosini bildiradi.
14. **Janr-fransuzcha** so`z bo`lib, tur, ko`rinish ma`nosini anglatadi.

BOSHQOTIRMA


- Bo`yiga:** 1. Bo`yoqlarni aralashtiradigan rassomchilik aspobi?
2. rassom tomonidan yaratilgan....
3. Rasm chizuvchi?
4. Geometrik shakl?
5. Rang, bo`yoq, tus.
6. Odam tasviri ishlangan rasm.

Eniga: Tasviriy san`atga aloqador so`z.



BOSHQOTIRMA

Agar siz vertikal (tik) holatdagi kataklarni ranglar nomi bilan to'g'ri to'ldirsangiz, gorizonta kataklarda tasviriy san`at uchun kerakli bo'lgan, o`quv quroli nomini o`qiysiz.



XULOSA

Xulosa o`rnida shuni aytish mumkinki, har bir tasviriy san`at shaydosi, hayoti davomida tabiatni, insonlarni, jonivorlarni kuzatib o`rganib boradi. Murabbiy rassom P.P.Chistyakov aytganidek<sup>1</sup>, “Talaba, avvalo, chizilayotgan buyumni sinchiklab kuzatishi zarur, so`ngra u naturani o`ziga "bo`ysundirishi" kerak, rassom qanday yetuklikka erishmasin, u narsani o`ziga qarab tasvirlashdan voz kechmasligi lozim”. Buyuk rassom va olim Leonardo da Vinchi "rang tasvir qonunlari" nomli asarida ta`kidlaganidek², - *“Yoshlar o`zlarini ilm-fan, tasviriy san`atda sinamoqchi bo`lsalar, avvalo, rasm chizishni mukammal bilmoqlari lozim”* degan edilar. Shunday ekan buyuk rassomlar izidan borib, tasviriy san`atga bo`lgan qiziquvchi yoshlarni har tomonlama qo`llab quvvatlab turishimiz lozim. San`atga oshno bo`lgan kishilardan, razil, odamovi, retsidevistlar chiqmaydi. Ular odamlarni, atrof - muhitni, mussafo osmonni sevadilar. Vatanga bo`lgan mehru-muhabbatlari o`zgacha bo`ladi. Bunday insonlardan faqatgina yaxshi ishlar, ezguliklar qoladi.

Shuningdek, talabalarning hozirgi globallashuv jarayonlari va ma`naviy tahdidlarni bilishi, fikrga qarshi fikr, g`oyaga qarshi g`oya bilan kurash olib borish lozimligini, inson qalbiga yo`l toppish, ma`naviy kamolot ekanligini va mamlakat ravnaqi yo`lida fidoyilik, jasorat ekanligini anglab yetishi hamda, g`oyaviy kurashish usullarini hayotda qo`llay olishlari kerak. Yoshlarimizning bunday bilimga, kuch-qudratga va ma`naviy jasoratga ega bo`lish uchun, Prezidentimiz Islom Karimovning “Yuksak ma`naviyat - yengilmas kuch” asaridan foydalanish katta omil vazifasini o`taydi.

Shak-shubhasiz, buyuk kelajakka intilayotgan O`zbekistonimizning ertangi kuni davomchi vorislar, o`g`il qizlarning zimmasiga tushadi. Demakki, yurtimiz yoshlarining jismonan va ma`nan sog`lom, barkamol avlod, XXI asr talab qilayotgan intellektual bilim va tafakkurga ega insonlar bo`lib yetishishini ta`minlash eng buyuk, eng muqaddas maqsadimiz hisoblanadi.

¹ “Qalam tavir” B. Boymetov. “Toshkent” 2006 y “Musiq” nashriyoti

²“Qalam tavir” B. Boymetov. “Toshkent” 2006 y “Musiq” nashriyoti

Foydalangan adabiyotlar:

1. 1997-yili O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini rivojlantirish bo'yicha «Ta'lim to'g'risida»gi qonun va «Kadrlar tayyorlash Milliy» dasturidan.
2. "Maxsus rasm" F.Negmatova. "Toshkent" 2007 y.
3. "Rasm chizish va uni o'qitish metodikasi". Z.Egamberdiyev, R.Hasanov. "Toshkent" 1977 y.
4. "Tasviriy san'at va uni o'qitish metodikasi" B.N. Oripov. "Toshkent" 2005 y.
5. "Tasviriy san'at".S.Abdurasulov, B. Boymetov. "Toshkent" 2006 y.
6. "Tasviriy san'at va badiiy mehnat darslari". R.Hasanov, N.Egamov. "Toshkent" 1997 y.
7. "Qalam tavir" B. Boymetov. "Toshkent" 2006 y "Musiq" nashriyoti